

**BMT XAVFSIZLIK KENGASHI REZOLYUTSIYALARIDA MODALLIK VA
INSTITUTIONAL HOKIMIYATNING LINGVISTIK IFODASI****Kuchimova Nilufar Turanbayevna***Samarkand davlat chet tillar instituti doktoranti**Samarqand, O‘zbekiston*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalarida modallik kategoriyasining lingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro huquqiy-diplomatik diskursda modal birliklarning hokimiyat, majburiyat va institutsional nazoratni ifodalashdagi rolini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida 2015–2017-yillarda qabul qilingan BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari hamda Xalqaro Sud qarorlari tanlab olindi. Tahlilda Hallidayning funksional grammatika nazariyasi, Searlning nutq aktlari konsepsiyasi va Fowlerning kritik diskurs tahlili metodologiyasidan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “shall” modal fe’li rezolyutsiyalarda eng muhim performativ vosita bo‘lib, huquqiy majburiyat va normativ kuchni ifodalaydi. “May”, “must”, “can” kabi modal birliklar esa ehtimollik, imkoniyat, ruxsat va majburiyat ma’nolarini shakllantiradi. Tadqiqot modallik vositalari xalqaro siyosiy boshqaruvning lingvistik mexanizmi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: modallik, diplomatik diskurs, BMT Xavfsizlik Kengashi, institutsional hokimiyat, performativ fe’llar, huquqiy til, sotsiolingvistika, diskurs tahlili, deontik modallik, pragmatika

Kirish

Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash ehtiyoji global siyosiy tizimning qayta shakllanishiga olib keldi. Aynan shu tarixiy sharoitda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etildi. Tashkilotning asosiy maqsadi davlatlararo mojarolarni oldini olish, xalqaro huquqni mustahkamlash hamda global xavfsizlikni ta’minlashdan iborat edi. BMTning eng muhim organlaridan biri bo‘lgan Xavfsizlik Kengashi xalqaro siyosiy jarayonlarni boshqaruvchi asosiy institutsional markaz sifatida faoliyat yuritadi. Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilinadigan rezolyutsiyalar xalqaro huquqiy kuchga ega bo‘lib, davlatlar faoliyatini tartibga soladi. Shu sababli ushbu hujjatlarning tili oddiy kommunikativ vosita emas, balki hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Diplomatik va huquqiy diskursdagi til vositalari davlatlarga nisbatan majburiyat yuklash, taqiqlash, ruxsat berish va tavsiya qilish kabi funksiyalarni bajaradi.

Mazkur jarayonda modallik alohida o‘rin tutadi. Modal birliklar yordamida xalqaro tashkilotning institutsional mavqei ifodalanadi hamda davlatlar uchun huquqiy me‘yorlar shakllantiriladi. Ayniqsa, “shall” modal fe‘li BMT rezolyutsiyalarida eng muhim normativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda siyosiy va diplomatik diskursni lingvistik jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki til xalqaro siyosiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Adabiyotlar tahlili Diplomatik va siyosiy diskurs masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Halliday modallikni tilning interpersonal funksiyasi bilan bog‘lab, modal birliklar ijtimoiy munosabatlarni ifodalashini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, modal fe‘llar orqali so‘zlovchi tinglovchiga nisbatan o‘z pozitsiyasini bildiradi. Searle esa nutq aktlari nazariyasida performativ bayonotlarning institutsional kuchga egaligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, ayrim gaplar nafaqat ma‘lumot beradi, balki muayyan harakatni amalga oshiradi. Masalan, “Member States shall comply...” kabi gaplar davlatlar zimmasiga huquqiy majburiyat yuklaydi. Fowler kritik diskurs tahlili nazariyasida tilning hokimiyat va ideologiyani shakllantirishdagi rolini yoritadi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, grammatik va leksik tanlovlar ijtimoiy kuch munosabatlarini aks ettiradi.

Chilton siyosiy diskursni hokimiyat va manipulyatsiya vositasi sifatida baholaydi. Van Leeuwen esa diskursda ijtimoiy aktorlarning reprezentatsiyasiga e‘tibor qaratadi. Huquqiy diskurs bo‘yicha tadqiqotlarda “shall” modal fe‘lining majburiyatni ifodalovchi asosiy birlik ekanligi ko‘plab mualliflar tomonidan qayd etilgan. Diplomatik matnlarda ushbu modal birlik yuqori darajadagi normativ kuchga ega. Mazkur tadqiqot sifat metodologiyasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqot materiali sifatida 2015–2017-yillarda qabul qilingan 15 ta BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi hamda 9 ta Xalqaro Sud qarorlari tanlab olindi. Hujjatlar BMTning rasmiy elektron bazalaridan olindi.

Tahlilda quyidagi metodlardan foydalanildi:

kritik diskurs tahlili;

pragmatik tahlil;

funksional-semantik tahlil;

qiyosiy tahlil. Modal birliklarning funksional yuklamasi, pragmatik vazifasi hamda institutsional hokimiyatni ifodalashdagi roli o‘rganildi. Modallik va huquqiy-diplomatik diskurs Modallik tilshunoslikda ehtimollik, majburiyat, ruxsat va imkoniyatni ifodalovchi semantik kategoriya sifatida qaraladi. Diplomatik diskursda esa modallik nafaqat grammatik hodisa, balki institutsional boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. BMT rezolyutsiyalarida deontik modallik ustunlik qiladi. Deontik modallik majburiyat va normativ munosabatlarni ifodalaydi. Masalan: “Member States shall prevent the supply of arms...”

Mazkur gapda “shall” modal fe’li qat’iy majburiyatni ifodalaydi. Bu yerda Xavfsizlik Kengashi davlatlarga nisbatan hokimiyat subyekti sifatida namoyon bo’ladi. Shuningdek, “must” modal fe’li ham yuqori darajadagi majburiyatni bildiradi. Biroq “shall” huquqiy hujjatlarda ancha rasmiy va normativ xarakterga ega. “May” modal fe’li esa ruxsat va ehtimollik ma’nolarini anglatadi:

“The Committee may authorize exemptions...” Bu holatda davlatlarga yoki tashkilotlarga muayyan erkinlik beriladi. “Can” modal fe’li esa imkoniyat yoki salohiyatni ifodalaydi. Performativ fe’llarning pragmatik vazifasi. BMT rezolyutsiyalarida performativ fe’llar muhim pragmatik vazifani bajaradi. Bunday fe’llar qaror qabul qilish, buyruq berish yoki talab qo’yishni ifodalaydi.

Ko‘p uchraydigan performativ birliklar:

decides

demands

authorizes

urges

condemns

calls upon

Masalan: “The Security Council condemns in the strongest terms the nuclear test...” Bu gapda “condemns” fe’li nafaqat munosabat bildiradi, balki siyosiy-huquqiy baholash funksiyasini ham bajaradi. Performativ birliklar xalqaro tashkilotning legitim hokimiyatini mustahkamlaydi. Modallik va hokimiyat munosabatlari. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan modallik xalqaro hokimiyat munosabatlarini shakllantirish vositasidir. Xavfsizlik Kengashi modal vositalar orqali davlatlarning xatti-harakatlarini nazorat qiladi.

Rezolyutsiyalarda qo‘llanilgan modal birliklar quyidagi ierarxiyani yuzaga keltiradi:

majburiyat;

ruxsat;

tavsiya;

ehtimollik. Bu esa xalqaro siyosiy tizimdagi institutsional hokimiyatni aks ettiradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi modal transformatsiyalar. Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillaridagi modallik ifodasi qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ingliz tilidagi “shall” modal fe’li ko‘pincha o‘zbek tilida:

“shart”,

“majbur”,

“lozim”

kabi birliklar yordamida tarjima qilinadi. Biroq ingliz tilidagi kompakt huquqiy konstruktsiyalar o‘zbek tilida kengroq sintaktik shakllarda ifodalanadi.

Masalan: “States shall comply...” o‘zbek tilida: “Davlatlar mazkur qarorlarga rioya etishi shart.” shaklida tarjima qilinadi. Bu esa semantik ekspansiya hodisasini yuzaga keltiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalarida modallik xalqaro huquqiy boshqaruvning asosiy lingvistik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Modal birliklar davlatlarga nisbatan majburiyat yuklash, ruxsat berish va normativ me‘yorlarni belgilash vazifasini bajaradi. Ayniqsa, “shall” modal fe‘li huquqiy-diplomatik diskursning markaziy performativ elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Modallik vositalari orqali Xavfsizlik Kengashi o‘z institutsional hokimiyatini amalga oshiradi. Kelgusida BMT diskursining ko‘p tillilik va tarjima jarayonidagi pragmatik transformatsiyalarini yanada chuqurroq tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. London: Arnold, 1994.
2. Fowler R. Language in the News. London: Routledge, 1991.
3. Searle J. Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Chilton P. Analysing Political Discourse. London: Routledge, 2004.
5. van Leeuwen T. Discourse and Practice. Oxford: Oxford University Press, 2008.
6. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge: CUP, 2003.
7. Graddol D. English Next. London: British Council, 2006.
8. United Nations Security Council Reports. New York: United Nations, 2015–2017.
9. Schäffner C. Political Speech and Translation in the UN. Clevedon: Multilingual Matters, 2004.
10. Baker C. Foundations of Bilingual Education. Clevedon: Multilingual Matters, 2001.